

Sarvinoz AXMEDOVA,
Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi O'quv markazi bo'lim boshlig'i
 E-mail: sarvinozaxmedova81@gmail.com
 Tel:+99893 506 05 67

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) L.X.Rahmatov taqrizi asosida

THE CONCEPT OF PARLIAMENTARISM AND ITS SCIENTIFIC INTERPRETATIONS

Annotation

The article examines different approaches to understanding parliamentarism. Legislative power is an important component of state power, and its improvement is related to the historical evolution of the entire system of state power. Therefore, a comprehensive analysis of the problems of decision-making and development of the higher legislative bodies is of great importance for the theory and practice of state building, and for the future of Uzbekistan's parliamentarism.

Key words: Parliament, parliamentarism, state power; representative and legislative power.

ПОНЯТИЕ ПАРЛАМЕНТАРИЗМА И ЕГО НАУЧНЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Аннотация

В статье рассматриваются различные подходы к пониманию парламентаризма. Законодательная власть является важной составляющей государственной власти, и ее совершенствование связано с исторической эволюцией всей системы государственной власти. Поэтому всесторонний анализ проблем принятия решений и развития высших законодательных органов имеет большое значение для теории и практики государственного строительства, для будущего парламентаризма Узбекистана.

Ключевые слова: Парламент, парламентаризм, государственная власть; представительная и законодательная власть.

PARLAMENTARIZM TUSHUNCHASI VA UNING ILMIY TALQINLARI

Annotatsiya

Maqolada parlamentarizmni tushunishning turlicha yondashuvlari ko'rib chiqilgan. Qonunchilik hokimiyati davlat hokimiyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni takomillashtirish davlat hokimiyati butun tizimining tarixiy evolyutsiyasi bilan bog'liq. Shu sababli qonun chiqaruvchi oliy organlarning qaror topishi va rivojlanishi muammolarini har tomonlama tahlil etish davlat qurilishi nazariyasi va amaliyoti uchun, O'zbekiston parlamentarizmining kelajagi uchun teran ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Parlament, parlamentarizm, davlat hokimiyati; vakillik va qonun chiqaruvchi hokimiyat

Kirish. Hozirgi davrda parlamentarizm keng tarqalgan tushunchalardan biri bo'lib, ushbu siyosiy atamaga bo'lgan qiziqishning ortishi XX–XXI-asrlar boshidagi davlat organlarini tashkil etish va ular o'rtasidagi o'zaro aloqalarga oid voqealar rivoji bilan bog'liqdir. Zamonlar o'zgarishi bilan parlamentlarning roli ham o'zgarib, uning mohiyati yangi g'oyalalar, tamoyillar, faoliyat ko'rsatish tajribasi bilan boyib bormoqda. Parlamentarizm g'oyasi birinchi ming yillik bo'sag'asida Rimda, Angliya va Ispaniyada xalq majlislari shaklida yuzaga kelgan bo'lib, shundan so'ng davlat anjumani darajasiga ko'tarilgunga qadar yana bir necha taraqqiyot bosqichlaridan o'tdi.

Parlamentarizm taraqqiyotining bosh tendensiyasi shundan iboratki, parlamentlar jamiyat hayotida muhim o'rin tutadi. Tabiiyki, har bir davlat parlamentning tuzilishi va faoliyat ko'rsatish masalalarini o'zicha hal etadi. Lekin bu keng amaliyotida hisobga olinadigan mushtarak belgilar bo'lishi mumkin emas degan ma'noni anglatmaydi. Shu munosabat bilan parlament institutlari qaror topishi va rivojlanish tajribasi o'rganilishi, tarixdagi ularning ahamiyatini, o'rni anglash, ular tabiatining hozirgi paytdagi tadrijiy taraqqiyoti va mohiyatini tushunib yetish, kelgusida uni rivojlantirish istiqbollarini belgilab olish juda muhimdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Parlamentarizm borasidagi nazariy va amaliy tadqiqotlarimiz ko'rsatishicha, parlamentarizmning qaror topishi o'ta murakkab, ba'zan esa mashaqqatli jarayondir. Unda tarixiy davrning o'ziga xos jihatlari, har bir alohida mamlakatning ijtimoiy va davlat hayoti, milliy an'analari, xalqning huquqiy madaniyati va siyosiy xohish-irodasi namoyon bo'ladi. Tabiiyki, ijtimoiy amaliyotning rivoji, tarixiy taraqqiyotning kechishi mamlakat qonun chiqaruvchi organi to'g'risidagi nazariy tasavvurlarni ham o'zgartirib borgan.

Parlamentarizm qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan bog'langan, chunki u uning negizida paydo bo'lgan. Ammo, "parlament" va "parlamentarizm" tushunchalarini bir xilda tushunish kerak emas. Ba'zan parlamentarizm deganda parlament faoliyatining nazariyasi va amaliyoti tushuniladi, biroq davlat organlari tizimida vakillik institutining mavjudligi parlamentarizm kabi maxsus siyosiy institutning mavjudligini anglatmaydi. Hozirgi vaqtda bir qator mamlakatlarda parlamentlar mavjud, ammo ular faqat qonun chiqaruvchilik rolini o'ynaydi. Parlamentarizm g'oyalari qadimdan ilmiy munozaralar markazida bo'lib kelgan. Parlamentarizm g'oyalari qadimgi asarlarda ham kuzatish mumkin, masalan, Platon, Aristotel, Sitseron asarlarida davlat hokimiyati tizimida vakillik organining o'rni haqidagi munozaralarni uchratish mumkin. Siyosatshunoslikda parlamentarizmni xuquqiy va siyosatshunoslik nuqta nazaridan izohlash mumkin. Huquqiy yondashuv parlamentarizmni boshqaruv shakllaridan biri sifatida tushunishga asoslanadi. Biroq parlamentarizm murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lgani uchun uni faqat parlament, hukumat va davlat rahbarining bir-biriga bo'ysunish darajasi bilan tavsiflanishi mumkin bo'lgan boshqaruv shakli sifatida tushunishning o'zi yetarli emas. Parlamentarizm fuqarolarning huquqlari, majburiyatlari va erkinliklarini ta'minlashning erishilgan darajasi orqali jamiyatni demokratlashtirish darajasini tavsiflaydi. O'zbekistonda tarixiy rivojlanish tajribasi va davlat mustaqilligiga erishish jamiyat va davlat bosharuvining mukammal institutlarini yaratadi. Jamiyatni boshqarish asrlar o'ishi bilan inson huquqlari va qadr-qimmatini saqlashga xizmat qilishi bilan takomillashib bordi. Bu sohadagi kashfiyotlardan biri hokimiyatning o'zaro taqsimlanishi bo'ldi. Ma'lumki, huquqiy davlatga o'tish va uning barorligining kafolatlaridan biri hokimiyatlar taqimlanishi prinsipidir.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda zamonaviy parlament bosqichma-bosqich shakllandi. Oliy Majlis jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalar irodasini ifodalsh va ular manfaatlarini ro'yobga chiqarishning haqiqiy institutiga aylandi. Buning

asosiy sababi shundaki, mamlakat hukumati va parlamenti hamjihatlikda ilg'or xorijiy tajribalarni, shuningdek, milliy an'analarni o'rganish asosida yildan-yilga parlamentchilik islohotlarini izchillik bilan amalga oshirib bordilar. Ayniqsa, o'z mamlakatlarida fuqarolik jamiyati va xuquqiy davlat barpo etgan davlatlar tajribasi sinch- kovlik va kunt bilan o'rganildi. Shuningdek, parlamentning kelib chiqish sabablari, unga bo'lgan dastlabki zaru- riyatlar, parlamentning siyosiy tizimdagi o'rni chuqur o'rganildi. Shu bilan birga bu sohadagi islohotlar izchillik bilan davom etmoqda. Mamlakatda qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatlari mustaqilligini ta'minlash, ularning o'zaro muvozanatlashishi asosida jamiyat barqarorligining doimiyligiga erishish islohotlarning muhim va dolzarb yo'nalishiga aylandi. Mamlakatda ikki palatali parlamentni shakllantirish borasida ilg'or tajribalar keng qo'llanilishi tabiiy holga aylangan. Islohotlarning hozirgi bosqichida ilk parlamentlarning paydo bo'lish zaruriyatiga bo'lgan qizi- qishlar yanada ortdi. Ikki palatali parlamentlarning jamiyat va davlat hayotidagi ahamiyati va o'rnini anglab yetish uchun uning kelib chiqish sabablarini o'rganish, za-monaviy parlamentarizmning taraqqiyotini tadqiq etish zaruriyati tug'iladi.

Aslida, «parlament» so'zining o'zagi fransuzcha «parler» dan kelib chiqqan bo'lib, u «suzlamoq» yoki «gapirmoq» ma'nosini anglatadi. Bundan shunday xulosa chikarish mumkinki, parlament o'zining tarixiy ko'rinishlarida, asosan, fikr ifodalash va shu bilan davlat siyosatiga u yoki bu ko'rinishda ta'sir o'tkazish joyi bo'lib kelgan. Ammo bugungi kunga kelib, zamonaviy parlamentlar dav lat hokimiyatining qonun chiqaruvchi oliy vakillik organi, siyosiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi, musta- qil siyosiy institut sifatida shakllandi. Zamonaviy parlamentlar vazifasidan kelib chiqib, ularning ahamiyati xususida xulosa chiqarish mumkin: Birinchidan, parlamentning qonunchilik vazifasi shaxsni, jamiyatni, davlatni huquqiy jihatdan ta'min- lash imkonini beradi. Zero, qonunlar huquqning asosiy manbai bo'lib, unga rioya etish har bir fuqaro, davlat organlari, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va demokratik institutlarning ijtimoiy majburiyatidir. Ikkinchidan, parlament davlat hokimiyati institut- lari tizimida saylab qo'yiladigan asosiy vakillik organi sanaladi. Bu esa uning fuqarolar uchun ochiq va demokratik tabiatini belgilab beradi. Uchinchidan, parlament o'zining ta'siri, vakolatlari nuqtai nazaridan hokimiyat shoxobchalari ichida muhim ahamiyat kasb etadi. Turli ijtimoiy manfaatlar va qarash- larning aynan parlamentda jamlanganligi jamiyat a'zo- lari, hokimiyat shoxobchalari, «markaz» va «xudud» o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli ziddiyatlarning oldini olish imkonini beradi.[1]

Tadqiqot metodologiyasi. Bizning tadqiqotimiz yo'nalishidan kelib chiqib, siyosatshunoslik nuqtai nazaridan yondashuv qiziqish uyg'otadi. Shu nuqtai nazardan parlamentarizmni uch jihatda ko'rib chiqish mumkin: parlamentning institut sifatidagi zaruriyatini va uning ijtimoiy vazifalarini ilmiy asoslash vazifasini bajaradigan g'oyaviy-nazariy konsepsiya;

hokimiyatlar bo'linishi mavjud jamiyatda vakillik va qonun chiqaruvchi hokimiyatning birligini o'zida mujassam etgan siyosiy-huquqiy institut; parlament vakolatini kengaytirish va parlament hukumatini shakllantirishning alohida holati (parlamentli respublikalarga xos holat). Ingliz tadqiqotchisi A.Days ta'kidlaganidek, parlamentarizmning asosi parlament ustunligi tamoyili bo'lib, parlament barcha turdagi qonunlarni chiqarish va ularni bekor qilish huquqiga ega bo'ladi [2]. Nemis tadqiqotchisi G.Yellinek esa parlamentni parlamentarizmning markaziy bo'g'ini deb hisoblasa-da, uni davlatning asosiy organlari sifatida tasniflamaydi. Jumladan, u parlament mustaqil organ bo'lmagani uchun davlatga va davlatga bo'ysunuvchi shaxslarga bevosita ta'sir ko'rsata olmasligini ta'kidlaydi. Uning paydo bo'lishi, mavjudligi va yo'qolishi davlatning tartibsizlanishi yoki o'zgarishiga olib kelmaydi[3]. P. Leshe parlamentarizmni tor va keng ma'noda ta'riflaydi. Tor ta'rif parlamentarizm bilan bog'liq bo'lib, u muayyan institutlar, ijtimoiy tuzilmalar va ijtimoiy-siyosiy madaniyatga asoslanadi. Kengroq talqinga ko'ra, parlamentarizm xalq manfaatlarini ifoda etuvchi parlamentning mavjudligi bilan bog'liqdir [4]. Parlamentarizm ko'p qirrali hodisa bo'lib, murakkab ichki tuzilishga ega. Biroq, siyosatshunoslikda "parlamentarizm" tushunchasi tez-tez qo'llanilishiga qaramay, ilmiy adabiyotlarda uning yagona talqini mavjud emas.

Tahlil va natijalar. Bir qator tadqiqotchilar parlamentarizmni siyosiy rejimning bir turi deb hisoblaydilar. M. A. Morgunova parlamentarizm davlat hokimiyatini amalga oshirish usuli, har bir aniq shtatda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari o'rtasida rivojlanadigan real munosabatlar bilan belgilanadigan, bunda parlament yetakchi rol o'ynaydigan maxsus rejim ekanligini ta'kidlaydi [5].

Xuddi shunday fikrni B.A.Strashun ham bildirib, siyosiy rejim sifatida parlamentarizmning asosiy xususiyati hukumatning o'z faoliyati uchun parlament oldidagi javobgarligi ekanligini ta'kidlaydi. Ya'ni, parlamentarizm - bu hukumat hokimiyati parlament ishonch votumiga bog'liq bo'lgan rejim, parlament esa yagona demokratik institutdir [6]. Bu hukumat hokimiyatga erishish va uni saqlab qolish uchun qonun chiqaruvchi organning ishonchidan bahramand bo'lishi kerak bo'lgan rejimdir.

Stiven Fish parlamentarizmni qonun chiqaruvchi hokimiyat hukumatni shakllantiradigan, bosh vazir muhim ijro etuvchi hokimiyatni amalga oshiradigan va qonun chiqaruvchi organ oldida mas'ul bo'lgan, prezident yoki mavjud bo'lmaydi yoki tantanali vazifalarni bajaradigan tizim sifatida belgilaydi [7].

Tadqiqotchilar parlamentarizmning turli jihatlariga e'tibor qaratadilar. A. A. Mishin parlamentarizmni jamiyatni davlat tomonidan boshqarishi tizimi sifatida qaraydi [8].

V. V. Bakushev, V. N. Lixachevlar ham xuddi shunday fikrni bildirishgan: "Parlamentarizm – bu davlatning siyosiy tashkiliy tizimi bo'lib, unda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning vazifalari aniq chegaralangan". [9].

"Huquq va siyosat" ensiklopedik lug'atida parlamentarizm boshqa davlat organlariga nisbatan vakillik va qonun chiqaruvchi organ – parlamentning rasmiy ustunligi bilan qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi funksiyalarning aniq taqsimlanishi bilan tavsiflangan boshqaruv tizimi sifatida qaraladi. Shuningdek, parlamentarizm sharoitida hukumat parlament tomonidan tasdiqlanishi va uning oldida javobgar ekanligi ta'kidlanadi [10].

Bir qator tadqiqotchilar parlamentarizmni tuzilmaaviy va funksional jihatdan hokimiyatlar bo'linishi, ijtimoiy adolat va huquq-tartibotni qator toptirish va rivojlantirish maqsadida parlamentning yetakchi roli bo'lgan qonun ustuvorligi tamoyillariga asoslangan davlat hokimiyatini tashkil etishning maxsus tizimi sifatida qaraydilar.

Aytishimiz mumkinki, bu ta'riflar oliy davlat hokimiyatini tashkil etish va faoliyat yuritishning parlament tizimini, uning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi funksiyalarini ajratgan holda ko'rsatadi. Masalan, R. M. Romanov parlamentarizm mezonlaridan biri qonun chiqaruvchi organlarning ijro etuvchi va sud hokimiyatiga nisbatan ustuvorligi ekanligini ta'kidlaydi [11].

Keng ma'noda parlamentarizm parlamentning roli qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi funksiyalarni ajratish bilan tavsiflangan oliy davlat hokimiyatini tashkil etish va faoliyat yuritish tizimi sifatida tushuniladi. Ba'zi tadqiqotchilar "...parlamentning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi mehnat taqsimoti bilan tavsiflangan jamiyatni

boshqarishning maxsus tizimi”, sifatida e’tirof etadi[12].

O. O. Mironov talqinida parlamentarizm murakkab va ko’p qirrali hodisa, qonun ustuvorligi va hokimiyatlar bo’linishi tamoyillari qaror topgan, demokratiya va yuksak siyosiy-huquqiy madaniyat bilan tavsiflanuvchi fuqarolik jamiyati shakllangan ijtimoiy qadriyatlarining ma’lum ko’lami sifatida tavsiflanadi.

A. D. Kerimov parlamentarizmni uch darajada amal qiluvchi murakkab iyerarxik hodisa sifatida qaraydi: parlament darajasida; parlamentning davlat hokimiyatining boshqa institutlari bilan o’zaro hamkorligi darajasida va jamiyatning siyosiy, huquqiy va umumiy madaniyati darajasida .

Tadqiqotchi A.V.Gorelik parlamentarizmni erkin saylovlar mexanizmi orqali turli ijtimoiy qatlamlar va guruhlar manfaatlarini aniqlash, muvofiqlashtirish va amalga oshirishga yordam beradigan institut sifatida, T.F.Milova esa demokratiya shakllaridan biri va erkinlikni amalga oshirish usuli sifatida tavsiflaydi.

Ayrim tadqiqotchilar parlamentarizmni xalq vakilligini parlament instituti sifatida rasmiylashtirish va parlamentning davlat boshqaruvi tizimidagi yetakchi organ sifatida shakllanishining tarixiy jarayoni deb hisoblaydilar.

Xulosa va takliflar. Bizning fikrimizcha, parlamentarizmni umume’tirof etilgan demokratik tartiblar asosida saylangan xalq vakilligining (parlamentning) boshqa davlat hokimiyat organlari bilan o’zaro hamkorligini ta’minlaydigan, uning davlat tizimidagi alohida mavqeini aks ettiruvchi va davlatning fuqarolik jamiyati bilan hamkorligini amalga oshiradigan siyosiy institut sifatida tavsiflash mumkin.

O’zbekistonda parlamentarizm tarixi mamlakatimiz mustaqilligining tarixi bilan chambarchas bog’liqdir. Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab shakllangan O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi mustaqillik tariximizning barcha bosqichlarida mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlash, xalq hokimiyatining chinakam demokratik tizimini shakllantirish borasida muhim o’rin egalladi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning milliy siyosiy tizimni hamda davlat boshqaruvi asoslarini demokratlashtirishga qaratilgan tashabbuslari parlamentning jamiyatimiz hayotida tutgan o’rni va ahamiyatini yanada kuchaytirdi.

Oliy Majlisning muhim va mustaqil institut sifatidagi faoliyati mamlakatimizning barqaror rivojlanishini ta’minlash, haqiqiy huquqiy davlatni shakllantirish, mamlakatda konstruktiv va bunyodkorlik muhitini yaratish borasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Fuqarolarning manfaatlarini ifodalovchi demokratik organ sifatida shakllangan, davlat hokimiyati organlari tizimida munosib o’rin egallagan, mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlarga faol jalb etilgan parlamentimiz xalqparvar davlat barpo etishga, milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga, xalqimiz farovonligini ta’minlash yo’lidagi islohotlarning faol tashabbuskori va ishtirokchisi bo’lib kelmoqda.

Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasidan kelib chiqib, davlat hokimiyati tizimida parlamentning rolini yanada kuchaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar deputatlik korpusidan yanada faol bo’lishni, ish jarayoniga yangicha ruh va o’zgacha mazmun olib kirishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR

1. Дайси, А. В. Основы государственного права Англии / – М., 1905. – 659 с.
2. Тансура, М. С. Парламентаризм в современной России: становление и динамик: дис. ... канд. полит. наук: 23. 00. 02 / М. С. Тансура. – Владивосток, 2005. – 168 с.
3. Моргунова, М. А. Скандинавский парламентаризм. Теория и практика / М. А. Моргунова. – М.: Изд. центр РГГУ, 2001. – 348 с.
4. Страшун, Б. А. Конституционное (государственное) право зарубежных стран / Б. А. Страшун. – М., 1995. – 354 с.
5. Fish, M. S. Stronger legislatures, stronger democracies / M. S. Fish // Proquest [Electronic resource]. – 2009.
6. Парламентаризм: обеспечение законодательных (представительных) органов власти / В. В. Бакушев, В. Н. Лихачев [и др.]; под науч. ред. В. В. Бакушева, В. Н. Лихачева. – М.: Реал Принт, 2015. – 744 с.
7. Гавриленко, В. Г. Парламентаризм / В. Г. Гавриленко // Большой энциклопедический словарь «Право и политика». – Минск, 2001. – 1000 с.
8. Романов, Р. М. Понятие и сущность парламентаризма / Р. М. Романов // Социально-политический журнал. – 1998. – № 4. – С. 210–225.
9. Алексеева, М. В. Конституционное право: учебник для бакалавров / М. В. Алексеева, М. Б. Смоленский. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2013. – 541 с.
10. Горелик А. В. Парламент как форма представительства интересов: современный взгляд на проблему. – Минск, 2008. – Вып. 6:
11. Конституционное право: учебник/ С. В. Васильева, В. А. Виноградов, В. Д. Мазаев. – 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Эксмо, 2011. – 560 с.
12. Sh. Qudratxo’jayev- O’zbekistonda profesional parlament tizimining siyosiy institut sifatida shakllanishi va rivojlanishi istiqbollari.